

Qozon va Samara shaharlaridan Toshkentga qo'shimcha charter qatnovlari

2020 4 October

Hurmatli yo'lovchilar!

"Uzbekistan airways" aviakompaniyasi 2020-yil 9- oktyabrda Qozondan Toshkentga va 2020-yil 10-oktyabrda Samaradan Toshkentga qo'shimcha charter qatnolari amalga oshirilishi to'g'risida xabar beradi.

Parvozlarning jadvali va aviachiptalar narxlari bilan aviakompaniya veb-saytida tanishishingiz mumkin:

Yo'nalish	Reys raqami	Uchish/kelish vaqti	
Qozon - Toshkent	HY 3650	09:00/14:30	Chipta sotib olish
Samara - Toshkent	HY 3654	11:20/15:25	Chipta sotib olish

Quyidagilarga e'tibor qaratishingizni iltimos qilamiz:

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga havo qatnoviga O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qirg'iziston fuqarolariga PZR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani (qatnov jo'nashidan oldin kamida 72 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda amal qiluvchi) majburiy ravishda taqdim etish sharti bilan ruxsat beriladi. PZR ma'lumotnomasiga ega bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniyaning parvozlari qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, shuningdek, "Uzbekistan airways" AJning eng yaqin savdo ofislaridan yoki mintaqangizdagi savdo agentlaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan xursand bo'lamiz!

Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlarni tilaymiz!

